

**O'ZBEK TILIDA MEHMONDO'STLIK KONSEPTINING LINGVOKULTUROLOGIK
XUSUSIYATLARI**

Maxmudova Oygul Elmurod qizi

Qo'qonDU O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich magistranti

+998949218277

Maxmudovaoygul9801@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqola o'zbek xalqining milliy o'zligini ko'rsatuvchi eng yuksak fazilat - mehmondo'stlik tushunchasining tilimizdagi in'ikosiga bag'ishlanadi. Unda mehmondo'stlik shunchaki odat emas, balki xalqimizning dunyoqarashi va ma'naviy qadriyatlarini birlashtiruvchi muhim konsept ekanligi yoritiladi. Maqola doirasida mehmondo'stlik bilan bog'liq bo'lgan iboralar, maqollar va nutqiy odob namunalari lisoniy hamda madaniy jihatdan tahlil qilinadi. Mazkur ish o'zbek tilining boy imkoniyatlarini va milliy mentalitetimizning o'ziga xos qirralarini ochib berishga xizmat qiladi.*

Аннотация: *Данная статья посвящена осмыслению концепции гостеприимства - высшей добродетели, представляющей национальную идентичность узбекского народа, в нашем языке. В ней подчеркивается, что гостеприимство это не просто традиция, а важная концепция, объединяющая мировоззрение и духовные ценности нашей нации. В рамках статьи анализируются уникальные выражения, пословицы и модели речевого этикета, связанные с гостеприимством, с лингвистической и культурной точек зрения. Данное исследование способствует пониманию богатого потенциала узбекского языка и отличительных особенностей нашего национального менталитета.*

Abstract: *This article is devoted to the reflection of the concept of hospitality - the highest virtue representing the national identity of the Uzbek people in our language. It highlights that hospitality is not merely a tradition, but an important concept that unites the worldview and spiritual values of our nation. Within the framework of the article, unique expressions, proverbs, and speech etiquette patterns related to hospitality are analyzed from linguistic and cultural perspectives. This study contributes to understanding the rich potential of the Uzbek language and the distinctive features of our national mentality.*

Kalit so'zlar: *lingvokulturologiya, mehmondo'stlik konsepti, o'zbek mentaliteti, milliy qadriyatlar, nutqiy etiket, lisoniy manzara, o'zbek xalq maqollari, frazeologizmlar, madaniy kod, mehmondo'stlik odobi.*

Ключевые слова: *лингвокультурология, концепция гостеприимства, узбекский менталитет, национальные ценности, речевой этикет, языковой ландшафт, узбекские народные пословицы, фразеологизмы, культурный код, этикет гостеприимства.*

Keywords: *linguoculturology, concept of hospitality, Uzbek mentality, national values, speech etiquette, linguistic worldview, Uzbek folk proverbs, phraseological units, cultural code, hospitality etiquette.*

Har bir xalqning tili uning o'ziga xos madaniy kodi va ma'naviy qiyofasini belgilovchi bosh omildir. Til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni o'rganish zamonaviy tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Lingvokulturologiya yo'nalishi tilni shunchaki aloqa vositasi emas, balki millatning ruhiyati, asriy qadriyatlari va dunyoqarashini o'zida saqlaydigan tirik xazina sifatida o'rganadi. Bugungi kunda ona tilimizning nufuzini oshirish va uning milliy qadriyatlar bilan bog'liqligini o'rganish davlat siyosatining eng muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-sonli "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni hamda 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-sonli "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bu boradagi huquqiy asoslarni mustahkamlab berdi. Ushbu hujjatlarda belgilanganidek, o'zbek tili xalqimizning dunyoqarashi, o'tmishi va kelajagini birlashtiruvchi qudratli kuchdir. Shuningdek, davlatimiz rahbarining ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yangi bosqichga ko'tarish borasidagi "Ezgulik - shiorimiz, ma'rifat - qurolimiz" degan tamoyilga asoslangan tashabbuslari o'zbekona mehmondo'stlik kabi asil qadriyatlarni lisoniy nuqtayi nazardan tadqiq etishga zamin yaratdi.

O'zbek tilidagi "mehmondo'stlik" konsepti shunchaki ijtimoiy odat doirasidan chiqib, xalqimizning milliy-madaniy kodini o'zida mujassam etgan murakkab lisoniy hodisadir. Bu tushuncha tilimizning leksik-frazeologik qatlamlarida, asriy maqollarimizda va kundalik nutqiy etiketimizda yashirin ma'no qatlamlarini hosil qiladi. Xalqimizning dunyoqarashida mehmon tushunchasi muqaddaslik darajasiga ko'tarilgan. Buning yaqqol isboti sifatida "Mehmon - otangdek ulug'" maqolini ko'rishimiz mumkin. Lingvokulturologik nuqtayi nazardan tahlil qilsak, o'zbek oilaviy tizimida "ota" eng yuqori ijtimoiy maqom va hurmat cho'qqisi hisoblanadi. Mehmonning bu maqomga tenglashtirilishi yoki undan ham yuqori qo'yilishi milliy mentalitetimizda mehmonga ko'rsatiladigan ehtiromning cheksizligini anglatadi. Bundan tashqari, "Mehmonga berilgan osh - jannatga yo'l" kabi xalqona iboralarning zamirida mehmondo'stlikning nafaqat dunyoviy, balki diniy-ma'naviy ildizlari, ya'ni saxovatning oxirat saodati bilan bog'liqligi lisoniy jihatdan muhrlangan.

O'zbekona mehmon kutish jarayoni o'ziga xos nutqiy birliklar tizimini yuzaga keltirgan bo'lib, ular muloqotning emotsional ilqligini ta'minlaydi. Masalan:

"Xush kelibsiz!" va "Qadamlaringizga hasanot!" kabi iboralar mezbonning mehmonga bo'lgan cheksiz minnatdorligini ifodalaydi.

"Mehmon kelsa rizqi bilan keladi" maqoli orqali o'zbek xalqining iqtisodiy tafakkurini ko'rsatadi. Bu orqali anglashimiz mumkinki, mehmon moddiy yuk emas, balki xonadonga baraka va rizq olib keluvchi ilohiy ne'mat sifatida idrok etiladi.

“Bir piyola choy ustida” metaforasi esa muloqotning kognitiv modelidir. Bu yerda choy ichish jismoniy ehtiyoj emas, balki insonlararo ruhan yaqinlashish, dildan suhbat qurish va oʻzaro ishonch koʻprigini qurish vositasi ekanligini koʻrishimiz mumkin boʻladi. Lingvokulturologik tahlillar mehmondoʻstlik konseptining ikki asosiy ustunga tayanishini koʻrsatadi. Birinchisi, moddiy jihat boʻlib, u “osh berish”, “non sindirish”, “dasturxon yozish” kabi harakatlar orqali namoyon boʻladi. Biroq oʻzbek madaniyatida ikkinchi ustun maʼnaviy jihat ustuvor sanaladi. Yaʼni “Yaxshi oshingdan yaxshi gaping yaxshi” maqoli ushbu konseptning eng muhim qoidasini belgilab beradi. Bunda dabdabali dasturxondan koʻra mezbonning samimiyati va “ochiq chehrasi” yuqori baholanadi. Bu esa oʻzbek xalqining mehmondoʻstlikka faqat moddiy boylik ulashish sifatida emas, balki qalb iliqligini taqdim etish sanʼati sifatida qarashini koʻrsatib beradi.

Til va madaniyat oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlik masalasi A.Abduazizov tadqiqotlarida atroflicha yoritilgan. Tilshunos olim tilni milliy madaniyatning ajralmas qismi sifatida talqin qilib, unda xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi va qadriyatlari mujassam ekanini ilmiy asoslaydi. Shu nuqtai nazardan, maqol va iboralarda aks etgan insoniy fazilatlar tilning faqat kommunikativ vosita emas, balki madaniy axborotni uzatuvchi tizim ekanini koʻrsatadi. Lingvokulturologiya sohasida oʻzbek tilshunosligida konseptlarni tizimli oʻrgangan tilshunos Sh. Iskandarova mehmondoʻstlik tushunchasini oʻzbek tilining frazeologik boyligi asosida tahlil qilgan. Uning xulosasiga koʻra, mehmondoʻstlik konsepti oʻzbek tilida “saxovat”, “himmati balandlik” va “yuzy yorugʻlik” kabi subkonseptlar bilan birikib, yaxlit muloqot tizimini hosil qiladi¹³.

Mehmondoʻstlik konseptning lisoniy tabiati ustida izlanish olib borgan olimlar, xususan, N.Mahmudov va Sh.Iskandarova oʻzbek mehmondoʻstligini millatning “maʼnaviy pasporti” sifatida taʼriflaydilar. Xorijiy tilshunos A.Vejbitskayaning qarashlari esa ushbu konseptning jahon lisoniy manzarasida oʻziga xos, universal, ayni paytda oʻta individual milliy xususiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Oʻzbek lingvokulturologiyasining asoschilaridan biri Nizomiddin Mahmudov oʻz ilmiy ishlarida til va madaniyatning uzviy bogʻliqligini taʼkidlaydi. Uning fikriga koʻra, “Mehmondoʻstlik oʻzbek xalqining kognitiv olamidagi markaziy tushunchalardan biri boʻlib, millatning axloqiy meʼyorlarini belgilaydi”¹⁴. Olim mehmondoʻstlikni shunchaki odat sifatida emas, balki til egalarining ongida muhrlangan “ezgulik” kategoriyasining ajralmas qismi sifatida baholaydi.

Dunyoga mashhur tilshunos A.Vejbitskaya turli xalqlarning madaniy konseptlarini oʻrganar ekan, mehmondoʻstlikning sharqona modeliga alohida eʼtibor qaratadi. Uning nazariyasiga koʻra, oʻzbekona mehmondoʻstlik “fidokorona ulashish” modeliga asoslanadi,

¹³ Iskandarova Sh. Oʻzbek tili leksikasini mazmuniy maydon sifatida oʻrganish (Konseptual tahlil). – Toshkent: Fan, 1998.

¹⁴ Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yoʻllari (Lingvokulturologik yoʻnalish haqida). – Toshkent: Akadem nashr, 2012.

ya'ni mezbbon mehmonning ehtiyojini o'z ehtiyojidan ustun qo'yadi. Bu jihat g'arb madaniyatidagi "etiket" tushunchasidan tubdan farq qiladi.

Tilshunos olim Y.Tojiyev o'zbek nutqiy etiketini tadqiq etar ekan, mehmondo'stlik bilan bog'liq "lutf" tushunchasiga e'tibor qaratadi. Uning qarashlariga ko'ra, mehmondo'stlik konseptining lisoniy ifodasi bo'lgan "marhamat", "qulchingizman", "xizmatdamiz" kabi so'z va iboralar ijtimoiy tenglik hamda o'zaro hurmatni saqlashga xizmat qiladi.

O'zbek tilidagi mehmondo'stlik konsepti xalqimizning bag'rikengligi va asriy qadriyatlarini o'zida jamlagan ma'naviy pasportdir. Tadqiq qilingan maqol va iboralar shuni ko'rsatadiki, o'zbek xonadonida mehmon shunchaki tashrif buyuruvchi emas, balki xonadonga baraka olib keluvchi aziz siymodir. Tilimizdagi "Yaxshi oshingdan yaxshi gaping yaxshi" tamoyili o'zbekona mehmondo'stlikning o'zagini tashkil qiladi: bunda moddiy to'kinlikdan ko'ra mezbbonning samimiyati va ochiq chehrasi yuqori baholanadi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqqan holda xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bu konseptni o'rganish o'zbek tilining boy imkoniyatlarini va millatimizning insonparvarlik tabiatini anglashda asosiy kalit bo'lib xizmat qiladi. O'zbek tili mehmondo'stlik konseptini ifodalashda o'zining boy leksik, frazeologik va stilistik imkoniyatlarini to'la ishga soladi. Bu esa mazkur tilning faqat muloqot vositasi emas, balki xalq ruhiyati, tarixi va qadriyatlarini avloddan avlodga yetkazib beradigan eng muhim madaniy meros ekanligini yana bir bor tasdiqlagaydi. Kelajakda mehmondo'stlik konseptining zamonaviy nutqiy amaliyot va raqamli muloqot muhitidagi transformatsiyasini o'rganish alohida ilmiy qiziqish uyg'otishi muqarrar bo'lib, bu yo'nalishdagi tadqiqotlar o'zbek lingvokulturologiyasi va kognitiv tilshunosligining yangi sahifalarini ochib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-sonli "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-sonli "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

3. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llari (Lingvokulturologik yo'nalish haqida). – Toshkent: Akadem nashr, 2012.

4. Iskandarova Sh. O'zbek tili leksikasini mazmuniy maydon sifatida o'rganish (Konseptual tahlil). – Toshkent: Fan, 1998.

5. Tojiyev Y. O'zbek nutqi madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: Toshkent universiteti, 1994.

6. O'zbek xalq maqollari. Ikki tomlik. – Toshkent: Sharq, 2005.

7. Abduazizov A. A. Til va madaniyat / A. A. Abduazizov. - T.: Fan, 2010.